

**MAMLAKATIMIZDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI  
QISQARTIRISHDASOLIQ TO'LOVCHILARGA ELEKTRON  
XIZMATLAR, SHU JUMLADAN MOBIL ILOVALAR JORIY ETISH  
YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

*Axmedov Feruz Baxodirovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada respublikamizda so‘ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiyligi ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta’mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo’llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Kirish:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, “molika-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga nisbatan e’lon qilingan moratoriyning muddati tugagani, lekin, bu yana eski usulda yoppasiga tekshir-tekshirlarni boshlab yuborish mumkin degani emasligi, 2020 yilning birinchi choragida, ilg‘or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy intizim joriy etilishi shartligini qayd etdilar.<sup>1</sup>” Bugungi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash dunyoning ko‘plab mamlakatlarida dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida ham xufiyona iqtisodiyotning ko‘lami yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>(Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis in 2020 25 January

## **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Soliq to‘lovchilar bilan imkon qadar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali muloqot qilishni yo‘lga qo‘yish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarning soni **45 taga** yetkazildi. Mazkur xizmatlar Davlat soliq qo‘mitasining «Elektron davlat xizmatlari - my.soliq.uz» portali orqali ko‘rsatilmoqda. Shu bilan birga, portaldagi soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq qonunchilikda ko‘zda tutilgan **12 turdagি** elektron hujjatlar hamda **27 turdagি** hisobotlar yuborilmoqda.

Joriy yil boshidan bir qator elektron davlat xizmati yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, “Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini elektron tarzda hisobga qo‘yish va to‘lov xabarnomasini shaxsiy kabinetga yuborish” elektron xizmatini yo‘lga qo‘yish natijasida joriy yilning 11 oy davomida **903,3 mingta** shartnomalar elektron tarzda hisobga qo‘yilgan.

Bu qatorda “Shaxsiy kabinet orqali elektron hisobvaraqt-fakturalarni rasmiylashtirish” elektron xizmati joriy etilgan va joriy yil boshidan o‘tgan davr davomida **731,5 mingta** hisobvaraqt-fakturalar elektron ko‘rinishda rasmiylashtirilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) da **16 ta** elektron davlat xizmatlari yo‘lga qo‘yildi.

2022 yilda my.soliq.uz portaliga jami **1,9 mln.ta** foydalanuvchilar tomonidan **105,6 mln.** marotaba murojaatlar bo‘lgan. Ya’ni, murojaatlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **22,3 foizga** oshdi.

Shuningdek, eng ko‘p foydalanilayotgan xizmatlarga bo‘layotgan murojaatlar jami murojaatlarga nisbatan quyidagicha:

- Elektron soliq hisobotlarni yuborish **39,7 mln** marotaba (40%);
- Shaxsiy kartochkadan ko‘chirmalar olish va solishtirma dalolatnomani taqdim etish **21,1 mln** marotaba marotaba (22,2%);
- Elektron to‘lovlarini qabul qilish **24,5 mln** marotaba (19,8%);
- Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish **20,1 mln** marotaba (17,3%).

Yil davomida shaxsiy kabinetlar orqali tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan **1,9 trln.so‘m** soliqlar elektron shaklda to‘landi. Mazkur to‘lovlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **157,9 mlrd.so‘mga oshdi**.

Huddi shunday, **PAYME, CLICK, U-PAY** hamda **MUNIS** elektron to‘lov tizimlari orqali **jismoniy shaxslar** tomonidan **9,7 trln.so‘mdan ortiq** soliqlar elektron shaklda to‘landi. Mazkur to‘lovlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8 trln.so‘mga oshgan**.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishni ta’minlaydigan axborot resursi hisoblanishi belgilangan.

Qonunchilikda ko‘zda tutilgandek, soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishga o‘tish soliq to‘lovchining xoxishiga ko‘ra, uning arizasi asosida amalga oshiriladi. Aks holda, soliq to‘lovchi va davlat soliq xizmati organi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil 5 sentyabrda 2926-sonli bilan ro‘yxatga olingan “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetini aktivlash” elektron xizmati joriy etildi.

Shaxsiy kabinet orqali soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishni ta’minalash imkoniyati yaratildi hamda uning tarkibida:

- Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnoma;
- Soliq hisobotlarning kameral nazorati jarayonida aniqlangan xatoliklar yoki ziddiyatlarni tuzatish bo‘yicha talabnomalar;
- Soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnomalar;

- Undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi da’vo ariza;
- Soliq qarzini qarzdorning debitori hisobidan undirilishi yuzasidan bildirishnoma;
- Ko‘chmas mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lov xabarnoma;
- Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash yoki undan ixtiyoriy voz kechish to‘g‘risida xabarnoma;
- Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkaziladigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning auditorlik xulosasining tasdiqlangan nusxasini va boshqa qator elektron xujjatlarni yuborish yo‘lga quyilgan.

Shaxsiy kabinetning funksiyalarini va navigatsiyalarini takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Jumladan, xizmatlarga mas’ul xodimlarni yuritish tizimiga, xizmatlardan foydalanish statistikasi bo‘limiga, izoh va baholar bo‘limiga o‘zgartirishlar kiritildi. “STIRingizni aniqlang”, “Soliq qarzi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnomma berish”, “Soliqlarni to‘lash”, “Solishtirma dalolatnomalarni shakllantirish”, “Murojaatlarni ko‘rib chiqish axvoli yuzasidan ma’lumot olish” elektron xizmatlari takomillashtirildi.

Shaxsiy kabinetdan (ERIdan foydalangan holda) foydalanish imkoniyatini beruvchi hamda **15 turdagি** xizmatlardan tarkib topgan “SOLIQ” mobil ilovasi joriy qilindi (*mazkur mobil ilovaning bugungi kunda 62 mingdan ortiq foydalanuvchisi mavjud*). 10 turdagи elektron davlat xizmatlardan tarkib topgan «Telegrambot» ishga tushirildi.

Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda fuqarolar tomonidan Jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi uchun tadbirkorlik sub’ektlarining soliqqa oid huquqbazarliklari to‘g‘risida xabar qilish imkonini beruvchi veb-portal joriy yil fevral oyida ishga tushirildi.

Bundan tashqari, Ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalaridan kelib chiqqan holda soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish jarayonini takomillashtirish hamda qulayliklar yaratish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

## Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar bilan jismoniy shaxslar o‘rtasida predmeti ishlar bajarishdan iborat bo‘lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to‘lov larga ishlatilgan materiallar narxi ham qo‘shilgan bo‘lsa, ushbu JShni tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligini va tegishli soliqlar hisoblanishini tekshirish.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovykh lgot dlya podderjki predprinimateley. Ekonomika i innovatsionnye texnologii, (4), 355–362. izvlecheno ot [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo‘llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.